



ANDIJON AN'ANAVIY HOVLILI TURAR-JOY ARXITEKTURASINI ZAMONAVIY TURAR-JOY BINOLARIDA QO'LLASH

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
magstranti Mahmudjonov Jahongir Baxodir o'g'li

Anotatsiya. Ushbu maqolada Andijon an'anaviy hovlili turar-joy arxitekturasining umumiy tuzilishini loyihalash usullari yoritilib berilgan. Loyihalashda uylarning arxitekturaviy-konstruktiv tuzilishi, xonalarning joylashtirilishi, hovlilarning landshaft dizayni, ichki xonalar bezagi ko'rsatilgan. Asosiy xonalar tarkibi va funksional fazoviy yechimi namoyon qilingan. Mahalliy urf-odat va an'analarni saqlagan holda Andijon muhitini an'anaviy hovlili turar-joylarda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sinch uylar, mehrob, tahmon, dahliz, ayvon, bolaxona.

O'zbekiston Respublikasi hududlari tabiiy va iqlim sharotlari bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir tarixiy mintaqasida o'ziga xos madaniy an'analari bilan birga arxitekturasi ham rivojlanib kelgan. Tabiiy iqlim sharoiti, tarixiy omillar, madaniy aloqalar har bir hududda arxitektura shakllanib borgan.

Ular orasida o'ziga xos va mustaqil ravishda Farg'ona maktabi ajralib turadi. Bilamizki Andijon hududi ham Farg'ona arxitektura maktabi ichiga kirib ketadi. Andijon hovlili uylarining arxitekturasi tabiiy omillar va milliy an'analari bilan boshqa hudud hovlili uylaridan farq qilgan. Andijon hududi janub va sharq tog' tizmalari bilan chegaradosh bo'lib, iqlimi kontinental, yog'ingarchilik esa boshqa hududlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ham tabiiy iqlim, tabiat manzarasi bilan mahalliy an'anaviy hovlili turar-joy me'morchilikni bog'lash muhim vazifa hisoblangan. Andijon hovlili turar-joy uylarini o'ziga xosligi shundaki, Xonadonlarda xonalar bilan tabiatni o'zaro bog'lovchi ayvonlar, atrof muhit manzarasini ko'rsatgan oziga xos landshafti, xonalarda yorug'likni ta'minlovchi dahliz, terassa va derazalardan keng foydalanilgan.



An'naviy oldi ayvonli uy-Andijon 2022-yil

Andijon hovlili turar-joy uylari ham Farg'ona turar-joy uylariga o'xshab nisbatan yopiq me'moriy majmua bo'lib, ko'cha va qo'shni hovli devorlari bilan chegaralangan. Hovlili uylar dahliz, terassa (ayvon) va xonalardan iborat bo'lgan. Hovlili turar-joy uchun xonalar soni esa, oilalarning tarkibiga qarab sekin-asta o'zgarib borgan. Oldi qismi ochiq ayvon va terassa bilan bog'langan xonalar, deraza va eshiklar uy hovlisiga va ba'zan ko'cha tarafga qaratib qurilgan. Xo'jalik uylar loyihasida hovlidan foydali ekinlar ekilishiga ham bog'liq bo'lgan. Masalan uzum yetishtiriladigan uyning oldi qismida tokzorlar qurilgan. Bu esa uylar uchun yozning issiq kunlarida soyabon vazifasini bajarib va mo'l-ko'l mevalar bilan ta'minlagan.

Andijon hovli uylarining tuzilishi oddiy, ixcham va mahalliy qurilish materiallaridan foydalananilgan. Bu qurilish materiallariga loydan (asosi tuproqdan) yasalgan pahsa, samon aralashtirilgan guvala, to'rtburchak shaklidagi xom g'ishtlardan keng qo'llanilgan. Keyinchalik pechlarda pishirilgan pishgan g'ishtlardan, jamoat binolari va turar-joylarida ham ishlatilgan. Yog'ochdan esa uyni ko'tarishda va tom yopmalarda asosan terakdan foydalananilgan. Turar-joy devorlari shu terak yog'ochlardan ustun qilinib va shu ustunlar orasiga diognal va gorizontal(ramka) holda ustunlar bilan qotirilib mustahkamlangan. Bu



mustahkam ustunlar orasi xom g'isht yoki guvala bilan to'ldirilgan. Devor yuzasida ko'riniib turgan guvala yoki xom g'isht loy bilan samon aralashmasidan tayyorlangan qorishma bilan tekis qilinib pardozlangan. Bunday uylar sinch uylar bo'lib, bir qatorli (yakka-sinch) va ikki qatorli (qo'sh sinch) edi. Sinchlik uylar konstruktiv jihatdan mustahkam bo'lmasada, qish va yoz oylarida yaxshi izolyatsiya vazifasini bajargan. Uyning tashqi ko'rinishi, ya'ni, ko'cha qismini esa darvoza, tashqi devori tom qismigacha davoza va ba'zan tepasida qo'shimcha xona (bolaxona) bo'lib, uyni yanada jozibador aks ettirgan.

Andijon XXI asr sinch uylar



Andijon hovlili uylarida xonalarning maydoni katta bo'lмаган баландлиги esa pastroq nisbatda ifodalanilgan. Asosan xonalar joylashuvi janubga qaratilgan xollarda ba'zan yozning issiq kunlaridan saqlanish maqasadida shimolga qaragan yozgi xonalar joylashtirilgan. Tashqi ayvonlari esa iqlim sharoitiga qarab ochiq yoki yopiq ko'rinishda bo'lgan. Xonalarning dizayni, ya'ni bezatilishiga ham alohida e'tibor berilgan. Ikki qatorli sinch uylarda barcha devorlar bo'ylab to'rtburchak va arkali tokchalar (mehrob) o'rnatilgan bo'lib, bu tokchalarga uy-ro'zg'or buyumlari qo'yilgan. Yotoqxonada esa an'anaga binoan mebel xonaning burchak qismida joylashgan. Ichki devorlarni bezatish odamlarning



imkoniyatlariga qarab bezatilgan, Masalan boy oilalarda xonaning dizayni yuqori saviyada naqsh va rasmlar bilan boyitilgan. Kambag' al oilalarda esa xonaning dizayni (mehrob) tokchalar bilan tugallangan. Umumiy xonalar qishki muhitga ham moslashtirib ketilgan.



An'naviy tahmonli uy

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach va hozirgi kungacha, arxitektura va qurilish bo'yicha yuqori bosqichga erishib kelmoqda. An'anaviy arxitekturasi boyitilib, yangi zamonaviy arxitekturaga ega bo'ldi. Bu esa Andijon hovlili turar-joy uylarida ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Aholining keskin ko'payib borishi esa turar-joyga bo'lган talabni ortishiga sabab bo'lmoqda. Aholini arzon, zamonaviy va o'zininga ananaviy arxitekturasiga tayangan holda hovlili turar-joy bilan ta'minlash har bir davlat singari davlatimiz uchun ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 28-oktabrda "Aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash" masalasiga bag'ishlangan yig'ilishida, xalqimiz ehtiyojini qondirish uchun yiliga 145 mingdan ortiq uylar qurilishi kerakligini aytib o'tdi. Andijon viloyati Respublikamizning aholisi eng zinch hududlaridan biri bo'lganligi uchun ham aholini uy-joy bilan ta'minlash zaruratini tug'diradi. Prezidentimizning (PF-6186son, 11.03.2021 y.) "Aholini uy-joy bilan



taminlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" farmoni imzolandi. Aholini hovlili turar-joy bilan ta'minlash masalasida milliy an'anaviylikka e'tibor qaratilib mahalliy urf-odatlarni saqlagan holda loyiha ishlari olib borilishi kerak. Andijon hovlili turar-joy uylari milliy an'analarini saqlagan holda, aholini zamonaviy turar-joy bilan ta'minlash asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Andijon qishloq hududlarida ham zamonaviy hovlili turar-joy uylari qurilmoqda. Bundan kelib chiqadiki bu turar-joylar arxitekturasi va dizayni shahar uylari bilan ajralmaydi. O'zbekiston hududida ko'plab joylarida na'munaviy uylar qurilayotganini ko'rib guvohi bo'lyapmiz. Lekin bu uylar hududdan qat'iy nazar bir tipda qurilayotgani, shu joyni o'z an'anasidek kelib chiqgan xolda qurilmayotganini ko'ramiz. Na'munaviy uylarda ham Andijon an'anaviy arxitekturasi bilan zamonaviylikni uyg'unlashgan xolda ko'rsatilishi kerak. Uylarni hovli bilan bog'lovchi ochiq ayvon, milliy uslubdagi bezaklardan va dizaynlardan foydalanish kerak. Xozirgi kundagi asosiy masala esa, Andijon turar-joy uylari milliy an'analarini saqlagan holda, aholini arzon va sifatli, zamonaviy tipdag'i turar-joy bilan ta'minlash xisoblanadi. Bu bilan milliy me'morchilik an'analarini kelgusi avlodlarga ham yetkazish mumkin. Turar-joy uylarning arxitekturasi va o'zining qiyofasida Andijon muhitini ifodalab bersagina, insonning hayolida Andijon arxitekturasi gavdalanadi. O'zimizning milliy me'morchilik an'ana va qadriyatlarimiz zamonaviy o'zbek arxitekturasida ko'rsatgan holda kelgusi avlodlarga yetkazish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Voronina V.L "Народные традиции архитектуры Узбекистана"
3. Akromov Z.M "Farg'onan vodiysi" T 1957
4. Prezident farmoni (PF-6186-son, 11.03.2021 y.)